

## **I. Kodeksning maqsad va vazifalari**

1.1 Etika va odob-axloq kodeksining (keyingi o'rinnlarda Kodeks) maqsadi Toshkent xalqaro Vestminster universiteti xodimlari, shu jumladan Universitet yotoqxonalari xodimlari (keyingi o'rinnlarda Universitet) uchun odob-axloq qoidalari va me'yorlari to'plamini belgilashdan iborat. Kodeks yordamida birgalikdagi faoliyatda muayyan odob-axloq shakllari

va munosabatlarning yagona mezonlari o'rnatiladi. Universitet xodimlarining strategik vazifasi mutaxassislarning yuqori darajadagi tayyorgarligini ta'minlagan holda oliv ta'lim, shuningdek, ilmiy izlanishlar olib borish sohasida TXVUning yetakchilik mavqeini mustahkamlashga har tomonlama hissa qo'shishdan iborat.

1.2 Ushbu Kodeksning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Universitet jamoasining etika qoidalari va odob-axloq me'yorlarini belgilash;
- xodimlarning o'z xizmat majburiyatlarini bajarish uchun shaxsiy mas'uliyatini va Universitet missiyasini amalga oshirishdagi ahamiyatini oshirish;
- Universitetdan tashqari tuzilmalar bilan (ishbilarmon hamkorlar, raqobatchilar, ommaviy axborot vositalari va boshq.) bilan o'zaro munosabatlarda axloqiy me'yorlarni belgilash.

1.3 Kodeks Universitetda sog'lom ruhiy muhitni shakllantirishga ko'maklashish, xodimlar faoliyatining samaradorligini oshirish, ta'lim hamjamiyatida Universitet nufuzini oshirishga qaratilgan.

1.4 Universitet ishga yollash, mehnatga haq to'lash va xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish amaliyotlarida bevosita va bilvosita jinsiga ko'ra kamsitishni bartaraf etish majburiyatini oladi.

1.5 Qo'shimcha harakatlar rahbariyatda erkak va ayol jinsiga mansub vakillarning soni o'rtasidagi tafovutni qisqartirishga qaratilgan.

## **II. Kodeksning qo'llanilish sohasi**

2.1 Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasi qonunlari, TXVU Nizomi, Jamoa shartnomasi va TXVUning ichki mehnat qoidalari, umume'tirof etilgan ma'naviy va axloqiy me'yor va tamoyillar asosida ishlab chiqilgan.

2.2 Kodeks Universitetning barcha xodimlariga nisbatan qo'llaniladigan odob-axloq qoidalari o'z ichiga oladi.

2.3 Kodeks qarorlar qabul qilishda adolat va xolislikni ta'minlab, Universitet nufuzini oshirgan holda Universitetga o'qituvchilar va boshqa xodimlarning tegishli odob-axloq mezonlarini saqlashda yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan.

2.4 Qarorlarni shaffoflik bilan va kengashib qabul qilish Universitet korporativ madaniyatining ajralmas tamoyillari hisoblanadi.